

O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI

Shamsiya Egamberdiyeva Mamajonovna

NamDU o'zbek adabiyotshunosligi

yo'nalishi magistranti

shamsiyaegamberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbek xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini bolalar folklori tashkil etadi. Bolalar tomonidan yaratilgan namunalar bilan birgalikda, kattalar tomonidan bolalar uchun atalgan ijod mahsullari ham bolalar folklori tarkibiga kiradi. Allalar ana shunday namunalardir. Biz alla matnlarining qiymatini oshiruvchi badiiy tasvir vositalari haqida to'xtalishga harakat qildik.*

Kalit so'zlar: *latoyif, did, saviya, "Poetik vosita", tajohuli orifona, alliteratsiya, tashbeh, tazod*

Аннотация: *Детский фольклор составляет значительную часть узбекского фольклора. Детский фольклор включает в себя детский фольклор наряду с образцами, созданными детьми. Аллах является таким примером. Мы постарались остановиться на средствах художественного изображения, повышающих ценность текстов Аллаха.*

Ключевые слова: *латойф, дид, савия, «Поэтический инструмент», таджхули орифона, аллитерация, аллюзия, тазад.*

Annotation: *Children's folklore is a significant part of Uzbek folklore. Children's folklore includes children's folklore along with examples created by children. Allah is such an example. We tried to dwell on the means of artistic representation that increase the value of Allah's texts.*

Key words: *latoyif, did, saviya, "Poetic tool", Tajhouli orifona, alliteration, allusion, tazad*

Millatning millat sifatidagi o'tmishi, an'analari, urf-odatlar u yaratgan xalq og'zaki ijodi namunalarida uzoq vaqt yashab qoladi. Bolalar ulg'ayish jarayonida o'zlari uchun sodda, ta'sirchan ijod namunalarini o'ylab topadilar. Bu ularning tafakkur va tasavvur olamiga ilk qadam qo'yanlaridan dalolat beradi. Ona allasi esa bolaning bu olamni anglashi uchun ochilgan ilk eshikdir. Alla va erkalamalarni onalar ijodi mahsuli deb bilsak-da, ularning bolalarga bag'ishlangani "Bolalar folklori" deb atashimizga asos bo'ladi. Bolalar folklori bolalarga atalgan sodda tushunchalar, dil izhorlaridan tashkil topilgan bo'lsa ham, allalar onalarning buyuk ijodkorlik qobiliyatlarini, so'zga, latoyifga munosabatlari namunasi o'laroq badiiy did va saviya mahsulidir. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his -uyg'u va kechinmalarni yorqin

ifodalashga xizmat qilivchi vositalar umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb yuritiladi. Bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetic vositalar”, “stilistik figuralar” ka’bi nomlar bilan ham ishlatiladi.

Onalar ijodkorligi shundaki, onalar hech qanday badiiy uquvga ega bo’lmay turib, so’zdan mohirona foydalana olganlar. Ular qo’llagan badiiy tasvir vositalari allaning badiiy jozibadorligi va kuyning monoton ohangini ta’minlab turgan. Ona farzandiga alla aytar ekan, o’z so’zlarini bolasi tushunishiga umid qiladi. “Tajohuli orifona” ning mohiyati shundaki, Ayol bolaga o’z dardlarini so’ylaydi. Savollar beradi, bu savollariga ham o’zi javob beradi.

Qoshginangning qiyg’ochi ,

Qalammidi , alla

Ko’zginangning qorasi

Gavharmidi , alla

Xalqimizning chorvadorlik bilan bog’liq hayoti in’ikosi sifatida allalardagi tasvirlangan toldan tayoq, el podasini boqish va shu orqali elatga xizmat qilish bolaga singdirilgan. O’z navbatida so’roq mazmuni parchadagi g’oyani yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan.

Alla aytsam boqarmisan , alla

Tol tayog’in taqarmisan, alla

Elning qo’yin boqarmisan, alla

Elatingga yoqarmisan, alla.

Badiiy adabiyotda tashbehning ikki turi farqlanadi. 1. Haqiqiy tashbeh. 2. Majoziy tashbeh. Odatda, tashbehdan o’z g’oyalari fikr va istaklarini badiiy ta’sirchan ifodalashda foydalanadilar. Tashbehning o’z qismlari bo’lib, allalarda ham bu poetik vositalardan unumli foydalanadilar.

Chopinganing bo’riday ,

Bo’rilarning zo’riday,

Yigit bo’lar chirog’im,

O’zi erning eriday.

Chorvador xalqlar orasida bo’ri obrazi chopqir, keskir, o’z prinsipiga ega jonivor sifatida gavdalanitiriladi. Ona bolasini aynan bo’riga, bo’ri bo’lganda ham eng kuchli, bo’rilar sardoriga mengzashni xohlaydi. Bola – mushabbih bo’lsa, bo’ri – mushabbihu bihi, chopqirlik esa – vajhi shabih, -day qo’shimchasi vositayi tashbihdir. Bunday tashbih “tashbihi mufassal” hisoblanadi. Ba’zan esa “Vajhi shabih” tushib qolib, Tashbihi mujmal” ni hosil qiladi. Quyidagi allada Bolaning ko’zlari, so’zlari xuddi otasiniki ka’biligi ta’kidlansa-da, aynan qaysi xususiyati bilan otasinikiga o’xshashi aytilmaydi.

Ko’zlari xuddi otajoni ko’zi, alla-yo alla

Yuzlari xuddi otajoni yuzi , alla-yo alla

Tillaring chiqsa aziz erkatoy alla-yo alla

So'zlagan so'zing bo'larmi tuzi, alla-yo alla

Bolaning tug'ilishi uyga nur, yorug'lik olib kiradi. Buvijonlar nabirasining ko'zlarini shamchiroqqa tashbehlab, har bir so'zidan hayot suvi tomishini ta'kidlaydilar.

O'rgilayin o'zingdan , alla

Shamchiroqday ko'zingdan, alla

Obi navvot tomchilar, alla

Buvi degan so'zingdan alla

Yuqoridagi allada vajhi shabih keltirilmagan bo'lsa-da, ko'zlarning porloqligini munosabat sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bu "Tashbihi mujmal" ekanligini ko'rsatadi. Ba'zan esa matnda "Vajhi shabih" ham "Vositayi tashbih" ham berilmasligi mumkin.

Oqro'mol beozorim, alla

Oq shoyidan ro'molim, alla

Oq yuzingni artayin, alla

Cho'lpon ko'zingni yum qo'zim, alla

Bu alla matnda bolaning ko'zlari tong yulduzi cho'lponga mengzaladi. Takrorlanayotgan oq so'zi poklik , tiniqlik , musaffolik ramzi bo'lsa, tong yulduzi umid timsolini yaratadi.

Allalarda bolaning bulbulga o'xshatish , bulbuldek xushovoz bo'lishiga umid bog'lash yetakchi o'rin tutadi." Ona arzandasini bulbul bola qiyofasida ko'rib hayolan uning taqdirini o'ylab qoladi, nogohoniy seldan havotirlanib, o'z holatini tasavvur qila boshlaydi. Shu zahoti bolasini bulbul qiyofasida ko'ra boshlaydi. Bulbul xushxon, mitti qush , ovozi bilan hammani maftun etgan, barchaga zavq ulashganidan e'zozda; u sayragan chaman mudom obod, uni cho'chitmaslik lozim. O'limdan q'rqmaydigan kishi yo'q, lekin "bulbul sayrasa, o'lim ham yo'lidan qochadi". Demak men bulbul farzandimda davom etaman. Ana shu hayotbaxsh ruh ona qalbining tasallisiga aylanadi va ona armonlarining nafis ifodasi bo'lib kuy bo'lib taraladi."⁸

Bulbul uchar qo'limdan alla-yo alla

Har kim qo'rqar olimdan, alla-yo alla

Shu bulbulim sayrasa , alla-yo alla

O'lim qochar yo'limdan alla-yo alla

Erkalayman yayratib , alla

Vatanimning bog'ida , alla

Bulbul qushdek sayratib , alla

⁸ . O'zbek bolalar folklori . O. Safarov , Toshkent -2007, 31- bet

Ko'chalarda o'ynab yursin ,alla

Bulbul obrazi ko'pgina allalarda hayotsevarlik, yashashga tashnalik talqini sifatida keng uchraydi. Bulbul faqat tinch, osoyishta, baxt ufurib turgan chamandagina sayraydi. G'am, alamli vayronalarda boyo'g'li ovozi eshitish mumkin. Shuning uchun ona farzandini doimo tinch va baxtli go'shada yashashini istab, bulbul qushdek sayrab yurishini niyat qiladi.

Otang bilan onangni

Qora ko'zi ,alla

Sayrab turgan bulbulday

Shirin so'zi, alla.

Gul , chechak obrazi ham allardagi yetakchi obrazlardan bo'lib onalar farzandini to'gridan to'gri gulga , ba'zan esa rayhonga , nargizga, lolaga qiyoslaydilar. Bolani gulga , g'unchaga o'xshatilishida ham bir ramziylik bordek. Chunki gul hayot davomiyligi timsoli. Folklorshunos M. Yoqubbekova ta'kidlaganidek," gulning semantic jihatdan farzand tushunchasini anglatishida undagi go'zallik, noziklik, xushbo'ylik mutanosiblik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Muhim moslik shundaki, go'dak ham gul ham o'sish, o'zgarish, taraqqiyot va yetilish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir".⁹

U yonimga qo'yayin alla

Bu yonimga qo'yayin alla

Guldek shirin isingni , alla

Hidlab – hidlab to'yayin , alla

Yulduzlardek samoda

Uchib yurgin ,alla

Ko'ksing bilan fazolarni

Quchib yurgin, alla

Yulduz ham orzu , ham umid timsoli hisoblanadi. Uning uzoqda nur sochishi yetib bo'lmas orzuni ifodalasa, osmonlarda uchib yurishi erkinlikni , hur fikrlilikni ifodalaydi. Takrorga yo'l qo'ymaslik uchun samo , fazo sinonimlaridan unumli foydalanadi.

Tazod – fikr ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri. O'zaro zid ma'noli so'zlarni keltirish orqali onalar badiiy maqsadini chuqurroq tasvirlaganlar.

Alla aytay tong otguncha

Uyqu kelmas kun botguncha,

Nuri diydam , alla

Qo'zichog'im , alla

Alla-yo alla

⁹ (Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида гул тимсоли // Тил ва адабиёт

Ona farzandini uyg'aytirar ekan, kelakakda o'ziga suyanchiq, tirgak bo'lishini juda xohlaydi. Uni yomon ko'zlardan asrar ekan, o'zi uchun bir qo'rg'on qurayotganini his qiladi.

Yaxshi –yomon kunimda

Menga juda keraklim

Alla , bolam, alla-yo

Ko'pincha mumtoz adabiyot namunalarida ham Tong va tunni o'zaro zidlash holatlari ko'plab uchraydi. Xalq og'zaki ijodida esa shom va sahar zidligi orqali tazodning go'zal namunasi yaratiladi.

Farzand degan bir gul bo'lar,

Shom-u sahar bulbul bo'lar,

Ota –onaga qul bo'lar,

Shunda bolam ko'nglim to'lar, alla.

Onalar allalarning ta'sir doirasini oshirish uchun o'zaro bir – biriga yaqin so'zlardan unumli foydalanganlar. Bu tanosub san'atini yuzaga keltirgan.

Alamlarimning ko'pligi –yo, alla

Peshonamning sho'rliги-yo, alla

Hasratimning ko'pligi-yo, alla

Dadajoningning yo'qligi -yo , alla

Alam, hasrat , peshonasining sho'rliги barchasiga sabab turmush o'rtog'ining yonida emasliги etib ko'rsatiladi. Bolaga ona xuddi o'z darddoshi, dardkashiday qalb kechinmalarini bayon qiladi. Dardini aytib yengillaydi.

Oyni olib beraymi, alla

Kunni olib beraymi, alla

Baliq bo'lib sho'ng'isang ,alla

Daryo bo'lib oqaman , alla

Ona farzandi uchun har nega tayyor. Dunyoning butun boyliklarinigina emas, oy kun , jamiki yaratilarni unga hadya etadi. Bolaga yaxshi sharoit, qulay muhit yaratish uchun baliq farzandiga daryoday oqishga hozir.

Badiiy takrorlar she'rning ohang jihatdan musiqiyliğini ta'minlab , nutqqa intonatsion butunlik bag'ishlaydi. She'riyatda so'zlarning takroriga asoslangan bir nechta badiiy tasvir vositalari mavjud. Mukarrar sa'ati aynan so'zni takror so'z holatida bir joyda takrorlashdir.

1) Qalam- qalam qoshingdan, alla

Qalandarlar aylansin, alla

Xumor – xumor ko'zingdan

Xumoralar aylansin, alla

2) Qizil gul tizim –tizim , alla

Ikkiga kirsin qizim alla

3) Alla aytsam , yayraysan, alla

Kulib- kulib qaraysan, alla

4) Qizil gul xona –xona, alla-ya alla

Tishlari dona-dona alla-ya alla

Istasang topilar yor , alla-ya alla

Topilmas ota –ona alla-ya alla

Misra boshida bir xil so'zlarning keltirilishi Anaforani yuzaga keltiradi. Oq so'ziga urg'u berilishi va har misra boshida bu so'zning takrori onaning oppoq ko'ngli hamda oq niyatini ham ifodalaydi.

Oq ro'mol beozorim, alla

Oq shoyidan ro'molim , alla

Oq yuzingni artayin ,alla

Cho'lpon ko'zingni yum qo'zim , alla

So'z takroriga asoslangan vositalardan biri tasbe'dir. Birinchi misra ohiridagi so'zning ikkinchi misra boshida qaytarilib kelishiga tasbe' deyiladi. Bunda diqqat mana shu takrorlanayotgan so'zning qanday ma'no tashishiga qaratiladi.

Allaning oti Haqdir

Haqdan tilaklar ko'pdir.

Ishtiyoq san'ati- so'zdan so'zni ajratmoq ma'nosini beradi. Nutqda o'zakdosh so'zlarning keltirilishi ishtiyoq hisoblanadi. Bu ham ohang jihatdan barqarorlikni ta'minlab, ham asosiy diqqatni shu mazmun tashigan pafosga qaratiladi.

Farzandlik uyga yog'ar rahmat , alla

Farzandsizlar chekar zahmat , alla

Farzandsizning uyin ko'rsang guliston, alla

Befarzandning uyin ko'rsang go'riston, alla

She'riy nutqda musiqiylikni ta'minlovchi, ohangdorlikni oshiruvchi vositalardan biri alliteratsiyadir." Tovushlar zamiridagi bu musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslikda (ilmi bade')da alliteratsiya "Tavzi' san'ati" deb yuritilgan¹⁰ Xalq og'zaki ijodida esa bu unsur keng tarqalgan vositalardan biridir.

1. Tut yog'ochdan beshiging, alla

Termulib o'tsin onang, alla

2. Jiydalardan beshigi, alla,

Jirkanmasin opasi, alla.

3. Babalaki bo'ppisi bor, alla,

¹⁰ M. Yo'ldoshev . Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent-2008, 49-50 betlar

Boshchasida do'ppisi bor, alla

“Assonans- badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan biri. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan”¹¹

1) O'riklardan beshigi, alla, O'ynatadi akasi, alla.

2) O'rik yog'och beshiging, alla O'rgilib ketsin onang, alla

3) Angishvonadek og'zingdan, alla Aravonliklar aylansin, alla

4) Olmalardan beshigi, alla Olib qo'ysin otasi, alla

Tashxis - shaxslantirish san'ati bo'lib, jonsiz narsa-buyumlarga insonlargadi qobiliyatlar va xususiyatlar ko'chirib o'tkaziladi. Quyidagi allada ko'kdagi oynin g xuddi insondek derazadan mo'ralab qarashi jonlantirilgan. Shu bilan birgalikda bolaning “qo'zim” deb erkalanishi chorvadorlik bilan bog'liq istiorani yuzaga keltirgan.

Ko'kda oy yarqiraydi, alla

Derazadan qaraydi, alla

Ko'zlaringni yum qo'zim ,alla

Yot quvonchim, qunduzim , alla

Allalar janr xususiyatlari, radif, qofiya, turoq, vazn jihatdan mukammal san'at asarlaridir. Ularning yaratuvchisi xalqning onalar qatlami. Onalarning farzandlari uchun yaratgan eng buyuk ixtirolaridir. Bu ixtiro mehrdan, muhabbatdan, samimiyatdan va sadoqatdan yaratilganligi uchun ham asrlar osha avlodlarga yetib keldi. Yana ming yillar davomida mangu “hayot qo'shig'i” bo'lib kuylanishda davom etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O . Safarov. O'zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
2. O'zbek folklori 1- kitob . Toshkent , 1939
3. Gulyor . Farg'ona xalq qo'shiqlari. Toshkent, 1967
4. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent, 1975
5. M. Jo'rayev. “Oy oldida bir yulduz”
6. N İ N N İ L E R İ M İ Z Prof. Dr. Â M İ L Ç E L E B İ O Ğ L U *., Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982
7. Eng sara allalar. Toshkent , Adabiyot uchqunlari, 2017
8. M. Yo'ldoshev . Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent-2008, 49-50 betlar

¹¹ M. Yo'ldoshev . Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent-2008, 49-50 betlar